



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



Yashil

Barqarorlik uchun innovatsiyalar:

Yashil iqtisodiyodga o'tish davrida
biznes va tadbirkorlik bo'yicha



2025 - yil
1-30-aprel



RESEARCH
AND GRANTS UPDATES

NAVBATDAN
TASHQARI SON

<https://gsbe-research.uz/conferences-ups-uz>

conference@gsbe.uz



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 112 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Dunyo sug'urta bozorida yashil xizmatlarning taraqqiyot strategiyalari..... | 7 |
| Alimov Baxodir Batirovich | |
| Yashil iqtisodiyot sharoitida amaliy va nazariy treninglar orqali xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish..... | 14 |
| Marupov Kabil Komilovich | |
| O'zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy holati tahlili..... | 20 |
| Nurmetova Muyassar | |
| Econometric assessment of the impact of investments on the economic system of Surkhandarya region | 29 |
| Nurbek Khatamov | |
| Debt versus tax financing in infrastructure: impact on employment | 37 |
| Raxmatov Firdavs Feruz o'g'li, Kengesbaeva Gulfayruz Azamatovna | |
| Digital infrastructure and green energy in export diversification: evidence from post-soviet countries..... | 47 |
| Sadriddinov Ulugbek Jaloliddin ugli | |
| Jahon savdo tashkiloti doirasida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari: ko'p tomonlama savdo kelishuvlari tahlili | 55 |
| Toshpulatova Malika Ulug'bek qizi | |
| Развитие финтеха в узбекистане: современное состояние и международный контекст | 63 |
| Адилова Сакинахон | |
| Yashil iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash | 68 |
| Rasulova Dilfuza, Kaytarov Voxid | |
| Gibrid avtomobillar importida to'lovlar undirish amaliyotini takomillashtirish..... | 80 |
| Kaljanov Baxadir Dauletbaevich | |
| Стратегии корпоративного управления и привлечения иностранных инвестиций в условиях устойчивой экономики..... | 88 |
| Фарход Каракулов | |
| The impact of WTO accession on Uzbekistan's trade policy: in the case of Kazakhstan | 102 |
| Azimjonov Muhammadsoli Muhammadolim o'g'li | |



YASHIL IQTISODIYOTNI INNOVASION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Rasulova Dilfuza

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi. i.f.d. professori
Email: dilfuza020466@gmail.com

Kaytarov Voxid

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi bosh mutaxassisi., (Phd)
Email: vohidqaytarov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari atroficha tahlil qilingan. Jahon amaliyotida yashil iqtisodiyotni baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni kompleks, o'zaro bog'liq holda baholash zarurligi ta'kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida resurslardan oqilona foydalanish, texnologik yangilanishlar va investitsion faollikni oshirish orqali milliy iqtisodiyotdagi ekologik yuklamani kamaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinmoqda. Asosiy e'tibor 1990–2022-yillar davomida mamlakatdagi CO₂ (uglerod oksidi) chiqindilarining dinamikasi va ularning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siriga qaratilgan. Ilmiy tahlillar asosida yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va resurs tejamkor innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi ko'rsatib berilgan. Maqolada milliy va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston uchun mos innovatsion yondashuvlar tavsiya etilmoqda. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda iqtisodiy mexanizmlar — soliq imtiyozlari, investitsion rag'batlar va uglerod chiqindilarini baholash tizimi kabi instrumentlarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ilmiy ish natijalari O'zbekistonda barqaror va ekologik toza iqtisodiyot modelini shakllantirishda amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, ekologik tizim, qayta tiklanuvchi energiya, investitsiya, innovatsion rivojlanish.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of assessing the economic efficiency of developing the green economy based on innovative approaches. Global practice emphasizes the need for a comprehensive and interrelated evaluation of economic, social, and environmental indicators when assessing the green economy. From this perspective, the article examines opportunities to reduce the ecological burden on the national economy through rational resource use, technological innovation, and increased investment activity within the framework of sustainable development.

The study analyzes the economic efficiency of innovative development of the green economy in Uzbekistan. Particular attention is paid to the dynamics of CO₂ (carbon dioxide) emissions in the country from 1990 to 2022 and their impact on economic sectors. Scientific analysis demonstrates the economic benefits of green technologies, renewable energy sources, and resource-saving innovations. The article recommends innovative approaches suitable for Uzbekistan based on national and international experiences. It also proposes the introduction of economic mechanisms to combat climate change, such as tax incentives, investment stimuli, and carbon emission evaluation systems. The research results can serve as a practical foundation for forming a sustainable and environmentally friendly economic model in Uzbekistan.

Key words: green economy, economic efficiency, innovation, ecological system, renewable energy, investment, innovative development.



Аннотация: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari atroflicha tahlil qilingan. Jahon amaliyotida yashil iqtisodiyotni baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarni kompleks, o'zaro bog'liq holda baholash zarurligi ta'kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida resurslardan oqilona foydalanish, texnologik yangilanishlar va investitsion faollikni oshirish orqali milliy iqtisodiyotdagi ekologik yuklamani kamaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinmoqda. Asosiy e'tibor 1990–2022-yillar davomida mamlakatdagi CO₂ (uglerod oksidi) chiqindilarining dinamikasi va ularning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siriga qaratilgan. Ilmiy tahlillar asosida yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va resurs tejamkor innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi ko'rsatib berilgan. Maqolada milliy va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston uchun mos innovatsion yondashuvlar tavsiya etilmoqda. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda iqtisodiy mexanizmlar — soliq imtiyozlari, investitsion rag'batlar va uglerod chiqindilarini baholash tizimi kabi instrumentlarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ilmiy ish natijalari O'zbekistonda barqaror va ekologik toza iqtisodiyot modelini shakllantirishda amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ключевые слова: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, ekologik tizim, qayta tiklanuvchi energiya, investitsiya, innovatsion rivojlanish.

KIRISH

Bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida turgan asosiy vazifalardan biri – iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga ekologik barqarorlikka erishishdir. Shu nuqtayi nazardan, «yashil iqtisodiyot» konsepsiyasi global va milliy miqyosda barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu an'anaviy iqtisodiy o'sish modellariga nisbatan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, ekologik xavfsizlikka, ijtimoiy adolatga va innovatsion yechimlarga asoslangan iqtisodiy rivojlanish modelidir.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, sanoatni modernizatsiya qilish orqali ekologik yuklamani kamaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish jarayonida uning iqtisodiy samaradorligini aniq va xolis mezonlar asosida baholash zaruriyati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda 1990–2022-yillar davomida CO₂ chiqindilarining darajasi va tarkibiy dinamikasi tahlil qilinib, asosiy ifloslantiruvchi tarmoqlar aniqlangan. Bu esa, o'z navbatida, yashil iqtisodiyotni innovatsion yondashuvlar orqali rivojlantirish zarurligini va uning iqtisodiy samaradorligini baholash muhimligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni innovatsion asosda rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash, bu sohada qo'llaniladigan ilg'or xalqaro tajribalar, milliy imkoniyatlar va istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinmoqda. Shu orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi amaliy takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Yashil iqtisodiyotni innovatsion yo'l bilan rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini kompleks tahlil qilish va ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini baholash ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, maqola doirasida yashil innovatsiyalar orqali iqtisodiy o'sishga erishish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va investitsion jozibadorlikni oshirishdagi muhim omillar aniqlanib, O'zbekiston uchun amaliy takliflar ishlab chiqilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot – bu an'anaviy iqtisodiy rivojlanish modelidan farqli ravishda tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti [UNEP] ta'rifiga ko'ra, “yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan birga ekologik xavf va tabiiy resurslarning yetishmovchiligini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiyotdir” (UNEP, 2011).

R. Kostanza (Costanza, 1997) yashil iqtisodiyotni “iqtisodiy va ekologik tizimlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan integrativ yondashuv” sifatida ta'riflaydi va bunday tizimning uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

Shuningdek, J. Pirs, A. Barbier va E. Markandiya (Pearce, Barbier & Markandya, 1989) o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot tushunchasini resurs tejamkorligi, chiqindilarni kamaytirish va iqtisodiy faollikni ekologik talablarga muvofiqlashtirish bilan bog'laydi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalar hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu texnologiyalar – qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol), energiya samarador uskunalari, “aqlii” qishloq xo'jaligi, chiqindilarni qayta ishlash va uglerod chiqindisini kamaytirishga qaratilgan yechimlarni o'z ichiga oladi.



F. Muller (Muller, 2013) ta'kidlashicha, "innovatsion yechimlarsiz yashil iqtisodiyotga o'tish samarasiz va sekin kechadi, shu bois davlatlar innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi siyosatlarni joriy etishi lozim."

G. Metkalf (Metcalf, 2009) innovatsiya va soliq siyosati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganar ekan, yashil texnologiyalarga investitsiya jalb qilish uchun ekologik soliqlar va subsidiyalar samarali vosita ekanini ta'kidlaydi.

O. Edenhofer (Edenhofer et al., 2011) esa IPCC hisobotida quyidagicha qayd etadi: "yashil innovatsiyalar faqatgina texnologik yechim emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida qaralishi lozim."

M. Haydarov va S. Qosimov yashil iqtisodiyotning hududiy rivojlanishdagi ahamiyatini o'rganib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv resurslaridan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha innovatsion texnologiyalar O'zbekistonning ekologik barqaror rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi."

Professor Sh. Xodjaev O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishda huquqiy va institutsional baza muhimligini ta'kidlab shunday yozadi: "Innovatsiya va yashil investitsiyalarni rag'batlantiruvchi qonunchilik asoslari va moliyaviy instrumentlar – milliy yashil iqtisodiyot strategiyasining ajralmas qismidir."

A. Abdullaev va H. Rahmonovlar tadqiqotlarida O'zbekistonda yashil innovatsiyalar, ayniqsa energetika va qishloq xo'jaligida samarali qo'llanilayotganini ta'kidlaydi. Ammo ularning keng qo'llanilishi uchun investitsiya muhitini yaxshilash va texnologiya transferiga yo'l ochish zarur ekanini qayd etadi.

Adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, yashil iqtisodiyot va innovatsiya o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, innovatsion texnologiyalar ushbu iqtisodiy modelning asosiy drayveri hisoblanadi. Ilg'or mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotni samarali rivojlantirish uchun nafaqat ilmiy-tadqiqot salohiyati, balki samarali davlat siyosati, moliyaviy mexanizmlar va strategik yondashuv zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholashda tizimli, iqtisodiy-statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil usuli orqali yashil iqtisodiyot va innovatsion faoliyat o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning o'zaro ta'siri, shuningdek ushbu jarayonlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi o'rganildi. Bunda davlat siyosati, bozor mexanizmlari va texnologik omillarning o'zaro ta'siri e'tiborga olindi.

Iqtisodiy-statistik tahlil usuli orqali O'zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy natijalari, jumladan ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi, energiya tejamkorligi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va boshqa ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil asosida xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholandi. Tadqiqotda rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy manbalar asos qilib olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish samaradorligini baholash maqsadida O'zbekistondagi mavjud holat bilan bir qatorda rivojlangan davlatlar, xususan Germaniya, Jahon bankining tavsiyalari va boshqa xalqaro tajribalar o'rganildi.

Germaniyaning barqaror energiya siyosati, qayta tiklanuvchi manbalarni joriy etishdagi innovatsion yondashuvlari hamda sanoatda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, Jahon bankining yashil investitsiyalar va ekologik samaradorlikka oid indikatorlari asosida iqtisodiy tahlil olib borildi.

Tahlilda O'zbekistonning yashil iqtisodiyot yo'lidagi salohiyati, amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar, investitsiya oqimlari, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish jarayonlari qamrab olindi. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida O'zbekistondagi iqtisodiy, institutsional va texnologik sharoitlarning ta'siri baholandi hamda mavjud muammolar bilan birga kelgusidagi imkoniyatlar ham ilmiy asosda ko'rsatib berildi.

Ushbu masalaning kulminatsion cho'qqisi 2015-yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan BMTning iqlim o'zgarishiga bag'ishlangan konferensiyasida 195 mamlakat tomonidan global isish darajasini +2°C da ushlab turish siyosati qabul qilingani bilan belgilanadi. Shuningdek, 147 ta mamlakatda "yashil iqtisodiyot" rejalarini, 147 ta mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish dasturlarini va 167 ta mamlakatda energiya samaradorligini iqlim o'zgarishlariga mos ravishda oshirish bo'yicha iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelidan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish – bu umumjahon trendi bo'lib, u nafaqat alohida milliy iqtisodiyotlarning, balki butun jahon iqtisodiyotining barqarorligini belgilaydi. "Yashil iqtisodiyot"ni ilgari surish esa taraqqiyotning asosiy yo'lidir. Yashil iqtisodiy o'sishning asosiy to'siqlari – texnologik cheklovlar, innovatsion imkoniyatlarning pastligi, innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabning yetarli emasligi, ilmiy kashfiyotlar va umuman ekologik yo'naltirilgan innovatsiyalardan olinadigan iqtisodiy daromadlarning kamligi bo'lishi mumkin.



Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ekologik-iqtisodiy indikatorlarini tahlil qilish va hisob-kitob qilish katta ahamiyatga ega. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish modelining samaradorligi esa uni ta’minlovchi iqtisodiy mexanizmlar natijadorligi va amalga oshirilishining ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik oqibatlar bilan izohlanadi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun tarkibiy qismdan iborat murakkab o‘zaro bog‘liqlikni nazarda tutadi. Bular iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlardir. So‘nggi 20 yil ichida paydo bo‘lgan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ushbu tarkibiy qismlar o‘rtasidagi yanada uyg‘unlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu barcha mamlakatlar guruhlari – rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish davri iqtisodiyotiga ega davlatlar uchun maqbul hisoblanadi. Bugungi kunda yashil iqtisodiyot tushunchasi tobora ommalashib bormoqda.

Yashil iqtisodiyot nafaqat kapitalning o‘shishi, mehnat resurslari va iqtisodiy o‘shishga oid masalalarni qamrab oladi, balki ishlab chiqarish omili sifatida tabiiy resurslarni ham yangilaydi. Buning uchun iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblangan tabiiy tizimlarning ekotizimga chidamliligini ta’minlash, resurslar samaradorligini oshirish va shu orqali atrof-muhitning iqtisodiyot tarmoqlari hamda inson faoliyatiga salbiy ta’sirini kamaytirish zarur.

Ma’lumki, iqtisodiy o‘shish tabiiy resurslarga bo‘lgan yukning ortishi bilan bog‘liq. Tahlillar ko‘rsatishicha, Lotin Amerikasi, G‘arbiy va Sharqiy Yevropa, Rossiya hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida har bir foiz yo‘qotilgan tabiiy kapital hisobiga 2–3 % ortiq iqtisodiy o‘shishga erishilmoqda. Afrikada esa tabiiy kapitalni yo‘qotish darajasi iqtisodiy o‘shish darajasi bilan deyarli bir xil. Bu esa Afrikada tabiiy resurslardan intensiv foydalanilayotgani va tabiiy resurslar inson kapitalining jamg‘arilishiga yo‘naltirilmayotganini anglatadi.

Jahon banki tomonidan qo‘llaniladigan “yashil iqtisodiyot” ko‘rsatkichlari barqaror iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari tasnifiga kiradi va inklyuziv yashil o‘shish indikatorlaridan iborat. Jahon banki instituti ilmiy izlanishlariga ko‘ra, barqaror iqtisodiy o‘shishning inklyuzivligini ta’minlovchi asosiy yo‘nalish bu – “yashil o‘shish”dir (1-jadval).

1-jadval. Jahon Bankining “yashil o‘shish”dagi samaradorlik ko‘rsatkichlari¹

| | Vosita | Ko‘rsatkich |
|-------------|---|---|
| Atrof muhit | Atrof muhit holatini yaxshilash | - SO2 emissiyasini kamaytirish; - rivojlanishdan himoyalangan tabiiy joylar; - havo va suv resurslari sifati |
| Iqtisodiyot | Ishlab chiqarish omillarining ortishi (jismoniy, inson va tabiat kapitali) | Marjinal mahsulot - ishlab chiqarish omilining bir birlikka ortishi natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi (ekotizim xizmatlari qiymati va tiklanadigan omillarga bog‘liq holda) |
| | Bozor muvaffaqiyat-sizliklarini innovatsiyalarni rivojlantirish va bilimlar iqtisodiyoti asosida hal etish | - yashil texnologiyalar samaradorligi ko‘rsatkichlari; - yashil texnologiyalar bilan ta’minlanish darajasi |
| Ijtimoiy | Tabiiy ofatlar, oziq-ovqat mahsulotlari narxlari beqarorligi va iqtisodiy inqiroz holatlariga moslashuvchanlikni oshirish | - ofatlardan ko‘rilgan zararlar (pul birligida); - ofatlardan zarar ko‘rgan insonlar (kishi); - narx beqarorligidan zarar ko‘rganlar (kishi) |
| | Yaratilgan ish o‘rinlari va kambag‘allikni kamaytirish | - yaratilgan ish o‘rinlari va ularning kambag‘allik darajasiga ta’siri; - ish bilan bandlik va resurslar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq ko‘rsatkichlar |

Shu bois Jahon banki tomonidan qo‘llanilayotgan “yashil iqtisodiyot” ko‘rsatkichlari “yashil o‘shish”ning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlanadi: atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlar. Ular jamiyat, iqtisodiyot va atrof-muhit uchun natijaviy samaradorlikni ifodalashga xizmat qiladi.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar “yashil o‘shish” natijasida erishish mumkin bo‘lgan potensial iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholashga yordam beradi. Jahon bankining Boylik buxgalteriyasi va ekotizim xizmatlari auditori [Wealth Accounting and Valuation of Ecosystem Services – WAVES] BMTning Statistik komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va iqtisodiy hisoblar tizimini [System of Environmental and Economic Accounting – SEEA] joriy qilishda texnik ko‘mak berib kelmoqda.


Barqaror rivojlanishga erishishda inson farovonligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni minimallashtirish maqsadi xalqaro tashkilotlar tomonidan “yashil iqtisodiyot”ni baholashdagi umumiy jihat sifatida qaraladi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar tomonidan “yashil iqtisodiyot”ni baholashdagi farqli jihatlari ular qo‘llayotgan ko‘rsatkichlar tizimida namoyon bo‘ladi.

1 http://siteresources.worldbank.org/EXTSDNET/Resources/Inclusive_Green_Growth_May_2012.pdf



Xalqaro amaliyotda “yashil iqtisodiyot”ni baholashda “yashil o’sish” ko’rsatkichlaridan keng foydalaniladi. Jumladan, 2009-yilda 34 mamlakat vakillari tomonidan “yashil o’sish” deklaratsiyasi imzolangan bo’lib, unda uzoq muddatli davrda barqaror iqtisodiy o’sishga faqat “yashil o’sish” hisobidan erishish mumkinligi xulosa qilingan.

Xususan, Germaniyada “yashil o’sish” modeli ekologik siyosatga oid choralar samaradorligini va sarflangan mablag’larni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Yashil o’sish” modeliga kiritilgan ustuvor yo’nalishlar o’zaro bog’liq bo’lib, makroiqtisodiyot darajasida umumiy vaziyatni baholash imkonini yaratadi (1-rasm).




1-rasm. Germaniya “yashil o’sish” modeli²

Ushbu model bir tomondan manfaatdor tomonlar – tadqiqotchilar, siyosatchilar, nodavlat tashkilotlari va tadbirkorlar, ikkinchi tomondan esa tarmoqlar mutaxassisleri, yangi iqtisodiy tafakkur vakillari hamda iste’molchilar o’rtasida muntazam muloqot o’rnatishni taqozo etadi.

“Yashil o’sish” an’anaviy “iqtisodiy o’sish” tushunchasiga nisbatan yangi, keng qamrovli tushuncha bo’lib, iqtisodiy o’sish bilan bir vaqtda yuz beradigan yashirin xarajatlarni (implicit cost) ham hisobga oladi. Jumladan, iqtisodiy o’sish natijasida tabiatga yetkaziladigan zararlar va milliy boylukning kamayishi shular jumlasiga kiradi.

Germaniya hukumati 2019-yil 20-sentyabrda Parij kelishuvi ko’rsatkichlariga erishish maqsadida iqlim o’zgarishlari bo’yicha yangi chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqdi. Mazkur chora-tadbirlarni iqlim o’zgarishlarini tartibga soluvchi huquqiy va maqsadli dasturlarga ajratish mumkin (2-rasm):



2-rasm. Germaniyaning iqlim o’zgarishlari dasturi - 2030

² <https://globalclimateforum.org/portfolio-item/german-green-growth-model/>



Germaniya iqlim dasturiga muvofiq, 2030-yilda issiqxona gazlari emissiyasi miqdorini 1990-yilga nisbatan 55,0 % ga, 2050-yilda esa 80–95 % gacha qisqartirish rejalashtirilgan. Mamlakatda 2019-yilda issiqxona gazlari emissiyasi miqdori 1990-yil darajasiga nisbatan 35,7 % ni tashkil etdi. Yevropa 2020 dasturiga muvofiq ushbu ko'rsatkichning 40 % ni tashkil etishi rejalashtirilgan edi (8.3-jadval).

Germaniyada issiqxona gazlari emissiyasi jadal sur'atlarda qisqarib bormoqda. Germaniyaning Fraunhofer nomidagi Quyosh energetikasi tizimlari instituti [ISE] ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda qo'ng'ir ko'mir yoqish hisobidan olinadigan elektr energiyasi miqdori 2018-yilga nisbatan 22,3 % ga, toshko'mir yordamida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi miqdori esa 32,8 % ga qisqargan. Mutaxassislar keskin qisqarish sabablarini shamol energiyasi hisobidan olinadigan elektr energiyasi miqdorining sezilarli darajada o'sishi hamda atmosferaga chiqarilayotgan har bir tonna CO₂ uchun talab qilinadigan sertifikat narxining qimmatlashib borayotganligi bilan izohlashmoqda.

Bir tonna CO₂ uchun sertifikatning o'rtacha narxi 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 15,8 yevrodan 24,8 yevrogacha oshgan. Birjada tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi bilan CO₂ narxi o'rtasidagi farqning qisqarishi elektr energiyasi ishlab chiqarishda ko'mirdan foydalanishni samarasiz qilib qo'ymoqda (2-jadval)³.

2-jadval. Germaniya iqtisodiyoti tarmoqlarida issiqxona gazlari emissiyasining holati va maqsadli ko'rsatkichlari⁴

| | 2019 y. (1990 yilga nisbatan foizda) | 2030 y. (1990 yilga nisbatan foizda) |
|-------------------|--------------------------------------|--------------------------------------|
| Energetika | 45,5 | 62,5 |
| Qurilish | 41,9 | 66,7 |
| Transport | 0,6 | 42,1 |
| Sanoat | 33,8 | 50,7 |
| Qishloq xo'jaligi | 24,4 | 35,6 |
| Boshqalar | 76,3 | 86,8 |
| Jami | 35,7 | 56,6 |

Shuningdek, Germaniya transport va qurilish sohalarida uglerodga narx belgilash milliy tizimini joriy etgan bo'lib, u Yevropa issiqxona gazlari savdosi tizimi (ETS)ga tegishli emas. Uglerod solig'i 2021-yildan boshlab bir tonna CO₂ uchun 10 yevro miqdorida belgilanadi va keyingi yillarda uning narxi oshib boradi: 2022-yilda – 20 yevro, 2023-yilda – 25 yevro, 2024-yilda – 30 yevro, 2025-yilda esa 35 yevro bo'lishi kutilmoqda.


Tadqiqot davomida O'zbekistonda 1990–2022-yillar oralig'ida CO₂ (uglerod oksidi) chiqindilarining havoga chiqarilishi tahlil qilindi. O'zbekistonda 1990–2022-yillar oralig'ida CO₂ chiqindilari umumiy hisobda o'sishga moyil bo'lgani kuzatildi.

O'zbekistonda o'rganilayotgan davr oralig'ida energiya manbalari bo'yicha SO₂ chiqindilarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. 1990-yillarda, ayniqsa sobiq Sovet Ittifoqi parchalanishidan keyin iqtisodiy faoliyat susayishi tufayli SO₂ chiqindilari biroz kamaygan. 2000-yillardan boshlab esa iqtisodiy o'sish, sanoat va energiya iste'moli ortishi bilan chiqindilar miqdori yana o'sishni davom ettirgan.

Mamlakat asosan tabiiy gazga tayanadigan energiya tizimiga ega bo'lib, bu ko'mirga qaraganda nisbatan kam miqdorda SO₂ chiqaradi (3-rasm).

3 https://www.ise.fraunhofer.de/de/presse-und-medien/news/2019/oeffentliche-nettostromerzeugung-in-deutschland-2019.html?utm_source=mailing&utm_campaign=2020-news-01-de

4 <https://www.cleanenergywire.org/factsheets/germanys-greenhouse-gas-emissions-and-climate-targets>




3-rasm. O'zbekistonda energiya manbalari bo'yicha SO₂ chiqindilari (1990–2022-yillar)

Tabiiy gazdan 1990-yilda 75,94 mln tonna SO₂ chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilda 87,9 mln tonna SO₂ chiqarilgan. Neft mahsulotlari yoqilg'isidan 1990-yilda 27,83 mln tonna, 2022-yilda esa 13,11 mln tonna SO₂ chiqarilgan. Ko'mir yoqilg'isidan 1990-yilda 13,99 mln tonna, 2022-yilda esa 12,43 mln tonna SO₂ chiqarilgan.

Mamlakatda SO₂ chiqindilarini sohalar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 1990–2022-yillar mobaynida O'zbekistonda SO₂ chiqindilari turli sektorlar bo'yicha turlicha darajada shakllangan. Eng katta hissani energiya ishlab chiqarish va issiqlik ta'minoti tarmog'i tashkil etgan bo'lib, bu sektor asosan tabiiy gaz va qisman ko'mir yoqishga asoslangan. Ikkinchi yirik soha transport sohasi bo'lib, u neft mahsulotlari (benzin, dizel) yoqish orqali atmosferaga katta miqdorda SO₂ chiqaradi (2-rasm).

Sanoat tarmoqlarida (sement, metallurgiya va boshqalar) ham ancha miqdorda chiqindi hosil bo'lgan. Qishloq xo'jaligi va maishiy sektorlar chiqindilarga nisbatan kamroq hissa qo'shgan bo'lsa-da, 2000-yillardan keyin aholi sonining ortishi va uy xo'jaliklari sonining ko'payishi bilan bu sohalarda ham SO₂ chiqindilari ortgan (4-rasm).



4-rasm. O'zbekistonda sohalar bo'yicha SO₂ chiqindilari (1990–2022-yillar)⁵


5 [Energy Statistics Data Browser – Data Tools - IEA](https://energy-statistics-data-browser-iaea)



Keyingi yillarda hukumat tomonidan energiya samaradorligini oshirish va toza texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar ayrim sektorlarda chiqindilar o'sishini sekinlashtirishga yordam bergan.

O'zbekistonda SO₂ chiqindilariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida iqtisodiy o'sish, aholi sonining ortishi, energiya iste'moli tarkibi va sanoatlashuv darajasi qayd etiladi. Iqtisodiy faollikning ortishi, ayniqsa sanoat va transport sohalarida, energiyaga bo'lgan talabni kuchaytirgan va natijada SO₂ chiqindilari o'sishiga olib kelgan. Shu bilan birga, aholi sonining ortishi maishiy energiya iste'molini ko'paytirgan.

Energiya manbalari tarkibida asosiy ulushni tabiiy gaz egallagani sababli, ko'mirga qaraganda chiqindilar nisbatan kam bo'lsa-da, umumiy energiya sarfining o'sishi natijasida umumiy SO₂ miqdori ortgan. Keyingi yillarda hukumatning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosati ayrim hollarda chiqindilar o'sish sur'atini sekinlashtirishda muhim rol o'ynamoqda (5-rasm).



5-rasm. O'zbekistonda SO₂ chiqindilariga ta'sir etuvchi omillar (1990–2022-yillar)⁶

O'zbekistonda 2024-yilda "yashil" energiya manbalari hissasi 25–30 % ga yetdi. Bu mamlakatning issiqlik elektr stansiyalariga (IES) bog'liqligini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishga qaratilgan sa'y-harakatlari natijasidir. O'zbekiston Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi uch yil ichida IESlar hissasi 90 % dan 70 % ga tushgan, bu esa qayta tiklanadigan energiya manbalari hissasining oshishiga olib kelgan⁷.

Mamlakatda 2021-yildan buyon 9 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi, ularning umumiy quvvati 2 500 megavatt dan ortiqni tashkil etadi. Bundan tashqari, umumiy quvvati 2 200 megavatt dan ortiq bo'lgan gidroelektr stansiyalari ham mavjud. 2024-yilning birinchi yarmida quyosh va shamol elektr stansiyalari 1,6 milliard kVt/soat, gidroelektr stansiyalari esa 4,1 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqardi. Bu 1,727 milliard kub metr tabiiy gazni tejash va 2,4 million tonna zararli gazlarning atmosferaga chiqarilishini oldini olish imkonini yaratmoqda.

Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning aprel-iyul oylarida IESlar tomonidan iste'mol qilingan tabiiy gaz miqdori 5,06 milliard kub metrdan 4,76 milliard kub metrga, mazut 86,5 ming tonnaga, ko'mir esa 1,608 million tonnaga kamaygan. Bu zamonaviy energiya tejamkor IESlarning ishga tushirilishi bilan bog'liq.

O'zbekistonda 2030-yilgacha elektr energiyasining 40 % dan ortig'i qayta tiklanadigan manbalar – quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalaridan ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.

Iqtisodiy o'sishning "yashil modeli" agar mukammal ishlab chiqilib, samarali amalga oshirilsa, resurslar sarfi jihatidan barqaror ishlab chiqarish, iste'mol tanloviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

⁶ [Energy Statistics Data Browser – Data Tools - IEA](https://energy-statistics-data-browser-iaa)

⁷ https://kun.uz/en/news/2024/08/05/uzbekistan-reduces-thermal-power-dependency-green-energy-reaches-25-30?utm_source=chatgpt.com



Iqtisodiy sohada:
yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi va uning aholi o'rtasida nisbatan teng taqsimlanishi;
ekotizim xizmatlari ko'rsatish hajmining oshishi yoki ular kamayishining oldini olish;
iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, ya'ni iqtisodiy risklarni boshqarishning takomillashuvi;
yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish hamda ulardan foydalanish, bozorga bo'lgan ishonchning ortishi.

Ekologik sohada:
tabiiy resurslardan foydalanishda unumdorlik va samaradorlikning ortishi;
ekologik chegaralar doirasida foydalaniladigan tabiiy kapital;
tiklanmaydigan kapitaldan foydalanib, boshqa shakldagi kapital (ishlab chiqarish va inson kapitali) hajmining oshishi;
atrof-muhitga salbiy ta'sir etish darajasining kamayishi va tabiat bilan bog'liq risklarni boshqarishning takomillashuvi.

Ijtimoiy sohada:
aholi, jumladan, kambag'allar yashash sharoiti, daromadlari va turmush sifatining oshishi;
kambag'allar uchun munosib va aholi turmush darajasini oshirish imkonini beruvchi ish o'rinlari yaratilishi va rag'batlantirilishi;
ijtimoiy, inson va bilim kapitalining oshishi;
tabaqalashuv darajasining pasayishi.

"Yashil iqtisodiyot" barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiluvchi konsepsiya hisoblanadi. Ammo ushbu konsepsiya doirasida "yashil o'sish"ni ta'minlovchi va "jigar rang iqtisodiyot"dan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi rasmiy ravishda qabul qilingan emas. Shu sababdan hozirda "yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish"ni tavsiflash uchun Global yashil o'sish instituti [Global Green Growth Institute – GGGI], IHTT, UNEP, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib kelinmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar tizimining ayrimlari o'xshash bo'lsa-da, ayrimlari bir-biridan keskin farq qiladi. Ushbu holat, asosan, xalqaro tashkilotlarning "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga nisbatan qanday yondashuvda ekanligiga bog'liq (3-jadval).

3-jadval. "Yashil iqtisodiyot"ni baholashda xalqaro tashkilotlar yondashuvi

| Xalqaro tashkilot | "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish maqsadi | "Yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari |
|--|--|--|
| BMTning atrof muhit dasturi | Atrof muhitning o'zgarishi bilan bog'liq risklar va ekologik taqchillikni kamaytirish asosida insonlar farovonligini yaxshilash va ijtimoiy tenglikka erishish | Atrof muhitni muhofaza qilish siyosatining samaradorligi va aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligining ortishini aks ettirish |
| Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti | Inson farovonligi bilan bog'liq tabiiy aktivlar barqarorligini ta'minlagan holda iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ko'maklashish | Ushbu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish, iste'mol va ayirboshlash jarayonlaridagi munosabatlar tizimi asosida ishlab chiqilgani uchun "yashil iqtisodiyot"ni uch o'lchamda (iqtisodiyot, tabiat va jamiyat) baholash imkonini beradi |
| Jahon banki | Tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof muhitga salbiy ta'sir o'tkazish va uni ifloslantirishni minimallashtirish asosida iqtisodiy o'sishga erishish. Yashil o'sish tabiiy ofatlarga, tabiiy kapitalning jismoniy yo'qotishlariga nisbatan barqaror hisoblanadi | "Yashil o'sish" asosida erishish mumkin bo'lgan potensial iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash |
| Global yashil o'sish instituti | Iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlash | "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish imkoniyatlarini baholash va barqaror "yashil o'sish"ni ta'minlash darajasini tavsiflash |
| Dual Citizen xalqaro agentligi | | Global yashil iqtisodiyot indeksini hisoblash va "yashil iqtisodiyot"ning amal qilish darajasini aks ettirish |

UNEP "yashil iqtisodiyot"ni baholashda atrof-muhit o'zgarishi bilan bog'liq risklarni kamaytirish asosida farovonlikni oshirish va ijtimoiy tenglikka erishishni maqsad qilib qo'ygan. Jahon banki esa atrof-muhit strategiyasida "yashil o'sish"ni samarali, toza va moslashuvchan ijtimoiy-iqtisodiy o'sish sifatida ta'riflaydi.



IHTT yondashuvi esa inson farovonligi bilan bog'liq tabiiy aktivlar barqarorligini ta'minlagan holda iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ko'maklashishga asoslanadi. GGGI va Dual Citizen xalqaro agentligi "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni baholashda reyting usulidan foydalanadi.

Qayd etilgan yondashuvlarda "yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish"ni baholashning umumiy jihatlari mavjud bo'lishi bilan birga, farqli tomonlari ham mavjud. Shu bois global darajada hozirga qadar umumlashtirilgan standart ko'rsatkichlar tizimi qabul qilinmagan. Ushbu ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish borasida yuqorida sanab o'tilgan xalqaro tashkilotlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish va "yashil o'sish"ni kompleks baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

"Yashil o'sish"ning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini ifodalovchi ustuvor indikatorlarni tanlab olish;

ular yordamida dinamikada samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash, "yashil o'sish" jarayoni sur'atlarini aniqlash, "yashil siyosat"ni tartibga solish va monitoringini olib borish;

samaradorlikning maqsadli ko'rsatkichlarini tanlash va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

ko'rsatkichlar hisobi va prognozi, jumladan ularga ta'sir qiluvchi omillar imkoniyatlariga muvofiq, "yashil o'sish"ning samaradorlik bo'yicha ustuvor yo'nalishlarini aniqlash.

UNEP doirasida ishlab chiqilgan "yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish" ko'rsatkichlari atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati samaradorligini hamda shu siyosat natijasida iqtisodiy-ijtimoiy farovonlik oshishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardir. Ushbu ko'rsatkichlar uch guruhga bo'linadi:

"Yashil o'sish" oldiga qo'yilgan maqsad va mavjud muammolarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar;

"Yashil o'sish"ni tartibga solish dastaklari va chora-tadbirlar tizimini aniqlovchi ko'rsatkichlar;

"Yashil o'sish"ning ijtimoiy-iqtisodiy ex-ante ta'siri, ex-post monitoringi va erishilgan natijalarning miqdoriy baholarini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish holatini aniqlashda qo'llaniladigan BMT ko'rsatkichlari "yashil o'sish" jarayoni bosqichlari tahlili bilan bog'liq. Mazkur jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lgan uch bosqichni o'z ichiga oladi. Muammoni aniqlash va maqsadni belgilash bosqichiga tegishli ko'rsatkichlar qaror qabul qiluvchilar uchun foydali dastak bo'lib, barqaror iqtisodiy o'sish bo'yicha to'g'ri yo'nalishni aniqlash imkonini beradi.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi quyidagi to'rt bosqichli jarayonda aniqlanadigan ko'rsatkichlardan iborat:

potensial jihatdan xavf soluvchi trendlarni aniqlash;

muammoni tahlil qilish va uning atrof-muhitga ta'sirini baholash;

ko'rib chiqilayotgan muammo sabablari va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish;

muammoning iqtisodiyot, jamiyat va tabiatga ta'sirini chuqur tahlil qilish.

Bu vazifalarning amalga oshirilishi kelgusida mamlakatimizda "Yashil o'sish" oldiga qo'yilgan maqsad va mavjud muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish borasida muayyan ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotganini ko'rsatadi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari – quyosh va shamol energiyasi bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Navoiy va Buxoro viloyatlarida qurilayotgan quyosh elektr stansiyalari kelgusida energetika tarmog'ini diversifikatsiya qilish va atmosferaga chiqariladigan uglerod gazlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yuqori texnologiyali qishloq xo'jaligi (aqli irrigatsiya tizimlari, resurs tejovchi uskunalari) ham innovatsion yashil yondashuvning amaliy namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida o'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish samaradorligi faqat innovatsiyalarni joriy etish bilan emas, balki institutsional muhit, qonunchilik bazasi va moliyaviy mexanizmlarning mukammalligi bilan ham uzviy bog'liq. Masalan, Germaniyada "Energiewende" siyosati doirasida davlat tomonidan xususiy sektorga berilgan soliq imtiyozlari, grantlar va ilmiy muassasalar bilan integratsiyalashgan dasturlar orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni yuqori samara bergan.

O'zbekistonda esa bu borada siyosiy iroda mavjud bo'lishiga qaramay, qator cheklovchi omillar mavjud. Jumladan:

texnologik yangilanish sur'ati yetarli darajada emas;

ushbu sohada ilm-fan salohiyati va innovatsion ekotizim hanuz rivojlanish bosqichida;

yashil loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi cheklangan va moliyaviy instrumentlar kam rivojlangan; mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ekotexnologiyalarga o'tishga tayyorligi past.

Munozaralardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy va amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

Yashil innovatsiyalarga soliq imtiyozlari va subsidiyalarni tizimini kengaytirish, xususan mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun texnologik yangilanishni rag'batlantirish zarur.

Fan-ta'lim-ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, bu esa yashil texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etishni tezlashtiradi.



Yashil moliya instrumentlarini (yashil obligatsiyalar, ESG-fondlar) bozorga joriy etish orqali investitsion muhitni yaxshilash mumkin.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar bilan texnologik hamkorlikni kuchaytirish, jumladan Germaniya, Janubiy Koreya va Niderlandiya kabi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalarini lokallashtirish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotni innovatsion asosda rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali tabiiy resurslar tejiladi, energiya samaradorligi oshadi va atrof-muhitga salbiy ta'sir kamayadi. Jahon banki, Germaniya va boshqa xorijiy davlatlar tajribasi ko'rsatib turibdiki, yashil innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lishi uchun davlat siyosatining barqarorligi, moliyaviy rag'batlar, texnologik infratuzilma va kadrlar salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ushbu sohada muayyan ilgariylashlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, innovatsion yechimlarning keng joriy etilishiga hali to'sqinlik qilayotgan omillar – qonunchilikdagi bo'shliqlar, moliyaviy vositalarning yetarli emasligi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tayyor emasligi saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan kelgusidagi rivojlanishda ilmiy asoslangan, tizimli va kompleks yondashuv zarur.

Olib borilgan tahlillar asosida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

Indikatorlarga asoslangan bosqichma-bosqich kamaytirish dasturini ishlab chiqish. 1990-yillarga nisbatan CO₂ chiqindilarining o'sish sur'ati tarmoqlar kesimida (energetika, transport, sanoat) tahlil qilinib, har bir tarmoq uchun aniq va o'lchash mumkin bo'lgan chiqindi kamaytirish maqsadlari belgilanishi lozim.

Tariflanmagan chiqindilarni aniqlash va hisobga olish tizimini takomillashtirish. Ba'zi yillarda rasmiy statistikada ma'lumotlarning yetishmasligi kuzatilgan. Bu esa hisobotlarning aniqligi va strategik qarorlar qabul qilishda xato ehtimolini oshiradi. Shu sababli milliy statistika tizimi xalqaro hisobot standartlariga (IPCC metodologiyasi) to'liq moslashtirilishi zarur.

Energiya manbalarida diversifikatsiyani kuchaytirish. CO₂ chiqindilarining asosiy qismi energiya ishlab chiqarish tarmog'idan keladi. Shu bois, qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, biomassa) ulushini keskin oshirish maqsadida davlat subsidiyalari va investitsion yengilliklar joriy etilishi kerak.

Transport tarmog'ida "yashil modernizatsiya" dasturi. Avtotransportning CO₂ chiqindilaridagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Elektromobillar, jamoat transporti uchun ekologik toza yoqilg'i turlari (metan, vodorod) va velosiped infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ishlab chiqarishda uglerod neytral texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish. Ishlab chiqarish obyektlari uchun "karbon auditi" o'tkazishni majburiy qilish, samarali texnologiyalarga o'tayotgan korxonalariga imtiyozlar berish zarur.

Yashil soliq va uglerod kvotalari tizimini joriy etish bo'yicha tajriba loyihalari. Yevropa va Osiyo davlatlarida amaldagi "karbon savdo bozori" kabi tizimlar O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy etilishi mumkin. Bu orqali korxonalarni SO₂ chiqindilarini qisqartirishga iqtisodiy jihatdan manfaatdor etish mumkin bo'ladi.

Yashil iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki mamlakat iqtisodiyotida yuqori samaradorlikka erishish uchun muhim asos hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion yechimlar va texnologik yangiliklarni keng joriy etish, xalqaro tajriba va moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish orqali O'zbekistonda barqaror va raqobatbardosh yashil iqtisodiyot modelini shakllantirish imkoniyati mavjud. Demak, ushbu yo'nalishdagi maqsadli siyosiy-iqtisodiy islohotlar va tizimli yondashuvlar kelgusida milliy taraqqiyotning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi tabiiy holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабрдаги "2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида" ПҚ-436-сон Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабрдаги "2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида" ПҚ-436-сон Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 1 июндаги ПФ-82-сон «Яшил иқтисодиётга ўтиш бўйича 2023–2030 йилларга мўлжалланган стратегияни тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони.
4. Жаҳон банки. (2022). Green Growth Assessment for Uzbekistan: Pathways to Low-Carbon Development. World Bank Publications.
5. Германия федерал иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт вазирлиги (BMZ). (2021). Green Economy: Shaping the future in an ecological, socially equitable and economically efficient way.



6. Назаров, Б.Б. (2021). “Яшил иқтисодиёт шароитида инновацион ривожланишнинг аҳамияти.” Иқтисодий тараққиёт муаммолари, №3, 45–51-бетлар.
7. Назарова, Ш.М. (2022). “Ўзбекистонда яшил иқтисодиётни ривожлантиришда давлат сиёсати самарадорлигини ошириш йўллари.” Иқтисодиёт ва таълим, №2(58), 27–33-бетлар.
8. United Nations Environment Programme (UNEP). (2021). Green Economy: Principles and Practices.
9. OECD. (2020). Green Innovation and Industrial Policy: Towards a New Paradigm. OECD Green Growth Studies.
10. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги. (2023). “Инновацион ечимлар ва яшил технологияларни жорий этиш бўйича йиллик ҳисобот”.
11. Кайтаров Воҳид Раимқулович. Тўртинчи саноат инқилоби: молиявий технологияларни банк секторида янги жараёнга ўтказиш стратегиялари. «Science and Education» Scientific Journal. March 2023 / Volume 4 Issue 3.
12. World Economic Forum. (2023). Fostering Effective Energy Transition.
13. FAO. (2022). Digital Technologies and Green Innovation for Sustainable Agriculture in Central Asia.
14. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.
15. Pearce, D., Barbier, E., & Markandya, A. (1989). Blueprint for a Green Economy. Earthscan.
16. Costanza, R. et al. (1997). An Introduction to Ecological Economics. CRC Press.
17. Muller, F. (2013). Green Innovations and Sustainability. Journal of Cleaner Production.
18. Metcalf, G.E. (2009). Market-Based Policy Options to Control U.S. Greenhouse Gas Emissions. Journal of Economic Perspectives.
19. Edenhofer, O. et al. (2011). IPCC Special Report on Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation. Cambridge University Press.
20. Манба: Ҳайдаров М., Қосимов С. (2021). Яшил иқтисодиёт ва ҳудудий ривожланиш стратегиялари. – Журнал: Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, №2.
21. Манба: Ходжаев Ш. (2022). Ўзбекистонда яшил иқтисодиётни шакллантириш ва инновацион сиёсат. – Журнал: Бошқарув ва бозор.
22. Абдуллаев А., Раҳмонов Ҳ. (2023). Яшил технологиялар ва инновация: Ўзбекистон тажрибаси. – Илмий мақола, Тошкент давлат иқтисодиёт университети.
23. Energy Statistics Data Browser – Data Tools - IEA



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



